

YECHIM SUJET UNSURI SIFATIDA

Soatmurotova Mexribon

Termiz davlat universiteti talabasi.

Hafizova Feruza

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17983775>

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarda yechim tushunchasi, uning asar sujetidagi o'rni haqida va yechim turlari, ularning mazmuni, ularning farqlanishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: yechim, tugun, ijobiy yechim, salbiy (fojiali) yechim, ochiq yechim, ramziy yechim, gibrid yechim, asar yakuni, o'quvchi hissiyoti, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar.

Abstract. This article provides information about the concept of resolution in a work of art, its place in the plot of a work, and the types of resolution, their content, and their differences.

Key words: solution, knot, positive solution, negative (tragic) solution, open solution, symbolic solution, hybrid solution, work ending, reader emotion, conflicts between characters.

Аннотация. В данной статье дается информация о понятии развязки в художественном произведении, ее месте в сюжете произведения, а также о видах развязки, их содержании и различиях.

Ключевые слова: развязка, узел, положительное решение, отрицательное (трагическое) решение, открытое решение, символическое решение, гибридное решение, развязка произведения, эмоции читателя, конфликты между персонажами.

Yechim – sujet unsuri; epik yoki daramatik asar asosida yotgan asosiy voqealar rivojining yakuni, ularning nihoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatni, personajlar orasidagi konfliktning yechimini bayon etuvchi sujet qismi. Yechimda konfliktli holat, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar o'zining badiiy yechimini topadi.

Yechimda asar sujetidagi voqea va qahramonlar taqdiri hal qilinadi. Tugun yechiladi.

Kurash xotima topadi. "Oqilona hayot" o'zining adolatli hukmini chiqaradi¹. Oddiy tilda anglashilsa, "Asar oxirida nima bo'ldi?" degan savolga javob — yechimdir.

So'z "yechmoq" fe'lidani olingan bo'lib, muammoni tugatish, natijaga yetkazish ma'nosini bildiradi.

Buyuk yunon olimi Aristotel yakun turlari 2ta deb tasniflagan va ularni ijobiy yakun va salbiy yakun deb e'tirof etgan. Hozirgi adabiyotda esa yechim 5 turdan iborat deyiladi. Bular: ijobiy yechim, salbiy (fojiali) yechim, ochiq yechim, ramziy yechim, gibrid yechimlar hisoblanadi.

Avvalo, ijobiy yechimga to'xtaladigan bo'lsak, bunda ziddiyat ezgulik foydasiga hal etiladi, qahramon o'z maqsadiga yetadi, voqealar baxtli yoki umidli tugallanadi.

Bu yechim o'quvchida quvonch, taskin, ruhiy ko'tarinkilik uyg'otadi. Ijobiy yechimga xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan "Alpomish" dostoni, dostonning so'ngida Alpomish o'z yori bilan baxtli bo'lishini ijobiy yechim deb olsak, ko'plab ertaklarda "ular murod-maqsadiga yetibdi" kabi yechimlarni ijobiy yechimga misol qilib ola olamiz.

¹ Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn]/ D.Quronov.-Toshkent: Akademyashr, 2018. – B. 280.

Yechimning yana bir turi bu salbiy, ya'ni fojiali yechim bo'lib, salbiy yechimda asar sujeti yakunida voqealar fojia, yo'qotish, adolatning qaror topmasligi, qahramon maqsadiga erisha olmasligi bilan tugaydi. Bunda o'quvchi ko'proq achinish, iztirob, ogohlik kabi hissiyotlarni boshdan kechiradi. Salbiy yechimga O'Imas Umarbekov qalamiga mansub "Odam bo'lish qiyin" romani, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni, Shekspirning mashhur asari "Romeo va Julietta" pyesasi va ko'plab asarlarni misol keltirishimiz mumkin. O'zbek adabiyotidagi mashhur asarlardan "Odam bo'lish qiyin" romanidagi Gulchehraning o'zini o'ldirish sahnasi, "Farhod va Shirin" dostonida Farhod va Shirinning o'z joniga qasd qilishi salbiy yechim timsoli bo'lsa, yevropalik yozuvchi Shekspirning "Romeo va Julietta" pyesasida ikki bosh qahramonlar Romeo hamda Juliettaning o'zini o'ldirishi salbiy yechimga misol bo'la oladi.

Asar yakunida voqealar aniq bir xulosa bilan tugamay, qahramonlarning keyingi taqdiri o'quvchi tasavvuriga qoldiriladigan yechim turi ochiq yechimdir, ya'ni muammo to'liq hal qilinmaydi, savollar ochiq qoladi. Qahramonlarning taqdiri aniq ko'rsatilmassligi, o'quvchi bir nechta ehtimoliy yakunni tasavvur qilishi ochiq yechim belgilari hisoblanadi. X.To'xtaboyev qalamiga mansub "Sariq devni minib" asari, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlari ochiq yechimga misol bo'la oladi. "Sariq devni minib" romanida qahramonning keyingi qismati ochiq qoldiriladi — u yana sarguzasht izlaydimi yoki yo'qmi, aytilmasligi, "Ikki eshik orasi" romanida esa ba'zi qahramonlarning kelajakdagi taqdiri oxirida ochiq qoladi — o'quvchi ularning qayerga borishini o'zi taxmin qilishi ochiq yechim misollaridir.

Ochiq yechimga qisman o'xshaydigan, ammo ko'plab farqli jihatlari bilan farqlanadigan yechim turi ramziy yechimdir. Ramziy yechimda asar yakunida voqealar yoki qahramon taqdiri bevosita emas, balki ramz, timsol, ishora yoki majoziy obraz orqali ifodalanadigan yakun turidir.

Muallif yechimni ochiq aytmaydi, balki timsol orqali ma'no qoldiradi. Ramziy yechim va ochiq yechim farqlari: ochiq yechimda noaniq, noma'lum bo'lsa, ramziy yechimda yechim mavjud bo'ladi, ammo timsollar orqali yashirilgan, ochiq yechimda qahramonning kelajagi ochiq qoldiriladi, ramziy yechimda asar g'oyasi ramz orqali yakunlanadi. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romani, Abdulla Qahhorning "Og'ri" hikoyalari ramziy yechim misollari hisoblanadi. "Kecha va kunduz" romanida kechaning tugab, kunduzning boshlanishi o'quvchida kelajakda Zebinisaning hayotida, albatta, yaxshi kunlar ro'y berishini tahmin qila oladi, "O'g'ri" hikoyasida esa kuzda ayon bo'ladigan shart Qobil boboga 'qimmatga' tushushini aytish mumkin.

Yechim turlarining oxirgi, ya'ni beshinchi turi gibrid (aralash) yechim hisoblanadi. Gibrid yechimda asar yakunida bir nechta yechim shakllari birlashtirilgan holda beriladi, bunda ba'zi qahramonlar uchun voqealar ijobiy, boshqalar uchun esa fojiali tugaydi. Yoki fojea bilan birga umidli, ijobiy ramz mavjud bo'ladi. Gibrid yechim asarga ko'p qatlamli ma'no va hissiyot beradi.

O'zbek adabiyotining birinchi romanlaridan biri bo'lgan "O'tkan kunlar" asari, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" tarixiy-ilmiy asari gibrid yechimga ega. "O'tgan kunlar" asari bosh qahramonlar Otabek va Kumush o'limi fojiali yakun bo'lsa-da, unda millat uyg'onayotgani, kelajakka umidning ko'tarilgani ijobiy yakunligi bilan gibrid yechimga misol bo'lishi mumkin. "Boburnoma" asarida Boburning o'limi, uning hayoti mashaqqatga boyligi salbiy, lekin uning merosi va tarixiy ishlarining ijobiy ta'siri mavjudligi, uning gibrid yechimga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, yechim turlari asarning badiiy qadrini, g'oyaviy mazmunini va o'quvchida uyg'otadigan hissiyotlarni belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. Har bir tur o'ziga xos badiiy funksiyaga ega: ijobiy va ramziy yechim o'quvchida umid va fikrlashni uyg'otadi, salbiy yechim esa ogohlik va achinish hissi beradi, ochiq va gibrid yechimlar esa asarga murakkablik va ko'p qatlamlilik qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn]/ D.Quronov.-Toshkent: Akademnashr, 2018.- 480 b.
2. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/Mas'ul murarrar: B. Valixo'jayev.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.- 264 b.
3. Adabiyotshunoslik lug'ati/D. Quronov. Z.Mamajovov, M.Sheraliyeva, -Toshkent: Akademnashr, 2013, -408b.
4. Adabiyotshunoslik nazariyasi/ Abdulla Ulug'ov, -G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2017, -308b.
5. Arastu. Poetika. Axloqi-kabir. Ritorika. -T.: "Yangi asr avlodi", 2011. -352b.